

## QO'SHIMCHALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Atiyazov Saparbay Jumamuratovich,**  
*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika  
institut, o'zbek tili kafedrasida o'qituvchisi*

**Palvonnazarova Hayotxon Jamoladdin qizi**  
*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika  
instituti Turkiy tillar fakulteti O'zga tilli  
guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 3-kurs  
talabasi*

Matnlarni tahlil qilgan paytimida eng, avvalo, ularni ichidagi har bir gapni alohida tahlil qilamiz. Gapning tarkibidagi har bir qo'shimchani ham alohida tahlil qilishimiz kerak bo'ladi. Leksemalar singari qo'shimchalar ham omonimlik xususiyatiga egadir. Qo'shimchalarning o'zini ikki guruhga bo'lib o'rganamiz: so'z yasovchi va shakl yasovchi so'z yasovchi qo'shimchalar so'zlarga qo'shib yangi ma'no anglatadi. Shakl yasovchi qo'shimchalarning o'zi ham ikki guruhga bo'linadi. Sintaktik shakl yasovchi va lug'aviy shakl yasovchi. **-in** qo'shimchasini oladigan bo'lsak ot yasaydi *ekin*. Bahor kelishi bilan dehqonlar *ekinlarni* ekishni boshlaydilar.

*sifat yasaydi erkin. Qushlar osmonda erkin parvoz etdilar.*

ravish yasaydi birin-ketin. Qizlar Kumushga *birin-ketin* o'z fikrlarini bildirishdi. fe'ning o'zlik nisbat qo'shimchasi bo'ladi. Kech kirishi bilan osmonda oy chiroyli bo'lib *ko'rindi*.

Fe'ning majhul nisbat shaklini yasaydi. Ovqatga tuz *solindi*.

-cha qo'shimchasini omonimligi

Ot yasaydi tushuncha; Uning tushunchasi juda yaxshi ediki, kesatiqlarni ham juda yaxshi tushunib olardi.

Sifat yasaydi xorazmcha; Bugun yangi kelinni qo'lidan shiringina Xorazmcha osh yeb mazza qildik.

Ravish yasaydi o'zicha; Guli bugun juda o'zicha bo'lib hammaga gap qaytarayotganida onasidan dakki eshitdi.

Otlarda erkalash kichraytirish qo'shimchasi bo'lib keladi; Bu qizcha na'muncha shirin ekan-a Alloh yomon ko'zlardan o'zi asrasin.

Qo'shimchalar ma'nodoshlik xususiyatiga ham egadir. -li qo'shimchasi o'rniga -kor, -dor, -ba, -ser, -bo qo'shimchalarini ham qo'llashimiz mumkin. Biz qo'shimchalarni o'z o'zni o'rnida qo'llashimiz kerak bo'ladi. O'zbek tilida old qo'shimchalar yo'q ular bizga fors-tojik tilidan kirib kelgan hisoblanadi. Hamma vaqt ham bu qo'shimchalarni bir-birining o'rnida qo'llab bilmaymiz. Chunki ba'zi

holatlarda uslubiy g‘alilik bo‘lishi mumkin shu sababli so‘zlarga qo‘shimcha qo‘shayotganimizda juda ham diqqatli bo‘lishimiz kerak bo‘ladi.

Sutli-sersut Oyim yopgan nonlar shiringina sutli nonlar

Shirali-shirador Gulining ovozi juda ham shirali edi.

Adabiyotchi-adabiyotshunos Adabiyotchi ustozimiz o‘rnak olsa, arziydigan insonlardan edi.

Qo‘shimchalarda zid ma‘nolilik nutqning ravon, ta‘sirchan, emotsional-ekspressiv jihatdan bo‘yoqdor bo‘lib chiqishiga yordam beradi. Badavlat-davlatless Badavlat bo‘lish uchun odamning faqat puli emas, balki uning bilimi zo‘r bo‘lishi kerak.

Ko‘ngilli-ko‘ngilsiz Bu dunyoda ko‘ngilli insonlarga juda ham yashash qiyin bo‘ladi chunki ular hamma narsani ko‘ngliga yaqin olishadi. Azizning Guliga nisbatan ko‘nglida qanchalik iliqlik bo‘lsa ham Gulining ko‘ngilsizligi sababli ularning munosabati uzoqqa cho‘zilmadi.

Qo‘shimchalarda ma‘nodoshlik, shakldoshlik va zid ma‘nolilik nutqning ko‘rkam chiqishga yordam beradi. Tilimizning ifoda imkoniyatlarini kengaytirib beradi. Uslubiy jihatdan rang-barang bo‘lishimi ta‘minlaydi va nutqimizning ta‘sirchanligini oshiradi.

O‘zbek tilida shakl yasovchi qo‘shimchalar gapdagi so‘zlarning shakllarini, vazifalarini va ma‘nolarini o‘zgartiradi. Ular quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Fe‘l yasovchi qo‘shimchalar – boshqa so‘z turkumlaridan fe‘l yasaydi.

Masalan: -li chiroy → chiroyli (chiroyli qilish)

-lash: do‘st → do‘stlash (do‘st bo‘lish)

2. Ot yasovchi qo‘shimchalar – fe‘l yoki boshqa so‘z turkumlaridan ot yasaydi:

-lik: do‘st → do‘stlik

-chi: dehqon → dehqonchi

-lik: bog‘ → bog‘bonlik

-shunos: temir → tilshunos

3. Sifat yasovchi qo‘shimchalar – ot, fe‘l yoki boshqa so‘z turkumlaridan sifat yasaydi:

-li: ilm → ilmli

-siz: do‘st → do‘stsiz

-viy: oila → oilaviy

4. Ravish yasovchi qo‘shimchalar – so‘zlardan ravish yasaydi:

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begmatov E A O‘zbek tili antroponimikasi Toshkent-2013
2. Yo‘ldoshev B O‘zbek onomastikasi masalalari Samarqand-2011
3. Shayxislamov, N .Ona tili va adabiyot darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash mahorati-2020.
4. Shayxislamov, N, & Baykabilov, U. Til – millatning ma’naviy merosi. Tilning leksik-semantik tizimi, qiyosiy tipologik izlanishlar va adabiyotshunoslik muammolari-2020.
5. Xolbekov, S. B.Adabiyot darslarida interfaol metodlardan foydalanish samarasi-2020.
6. Rafiyev A. , G‘ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). T. , “Sharq”, 2013.
7. Sayidahmedov N.”Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya”
8. Yusupova, G. A., Khudayorova, M. T., Buranova, S. M., Atiyazov, S. J., & Allanazarova, A. (2021). Formation of linguistic competencies in the uzbek language in future teachers. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 335-341.
9. Usanova, Q., & Xudayarova, M. (2023). O ‘ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA OTLARNING KELISHIK KATEGORIYALARINING QIYOSIY TADQIQI. *Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук*, 3(6), 54-56.
10. Xudayarova, M., & Usanova, Q. (2023). “BOBURNOMA”-TARIXIY MANBA SIFATIDA. *Академические исследования в современной науке*, 2(4), 24-27.